



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 11



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 366 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH | 34 |
| Safarov Sanjar Ravshan o'g'li | |
| O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI..... | 38 |
| Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi | |
| HUDUDIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI | 43 |
| Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna | |
| DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI | 50 |
| A.A. Ismailov | |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI | 56 |
| Mansurov Mansur Alisherovich | |
| ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI..... | 61 |
| Aliqulov Aziz Haydarjonovich | |
| XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI..... | 66 |
| Yormamatov Qodirjon Juraqulovich | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI | 71 |
| Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li | |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI | 78 |
| Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI..... | 84 |
| Aripov Abdulaziz Sakijonovich | |
| YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 89 |
| Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva | |
| ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI | 93 |
| To'lqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li | |
| MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI | 98 |
| Yusubov In'omjon Ikram o'g'li | |
| SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI..... | 103 |
| Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich | |
| OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH | 108 |
| Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi | |
| FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH | 113 |
| Yaqubov Timurbek G'anibekovich | |
| SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI | 123 |
| Ozoda Sabirova Shermaxamatovna | |
| YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI..... | 129 |
| Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna | |
| CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH..... | 133 |
| Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li | |



| | |
|--|-----|
| MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 144 |
| Arzikulov Otabek Ali o'g'li | |
| TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI | 152 |
| Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi | |
| MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI | 158 |
| Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li | |
| KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 163 |
| Aminova Shaxnoza Aziz qizi | |
| JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI..... | 168 |
| Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li | |
| ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА | 174 |
| Хошимова Камилла Навфал қизи | |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI..... | 184 |
| Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHLAR | 189 |
| Turayeva Adiba Ikramovna | |
| ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 193 |
| Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi | |
| MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 199 |
| Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich | |
| MINTAQANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI..... | 204 |
| Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi | |
| SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 210 |
| Jobborov Anvar Egamberdiyevich | |
| ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI | 217 |
| Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li | |
| JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI | 222 |
| Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich | |
| ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN | 225 |
| Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna | |
| BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 229 |
| Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi | |
| PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR | 233 |
| Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li | |
| WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS | 238 |
| Abdullaev Erkinjon Azamovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHLARI | 245 |
| Xalikov S. X. | |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH | 245 |
| Xudayberganov Jasur Baxodirovich | |
| WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS..... | 251 |
| Abdullaev Erkinjon Azamovich | |



| | |
|--|-----|
| NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 257 |
| Allakuliyev Akmal Baltayevich | |
| SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 261 |
| Jobborov Anvar Egamberdiyevich | |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH..... | 268 |
| Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna | |
| BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 272 |
| Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi | |
| ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI | 276 |
| Tulyaganova Aziza | |
| ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI..... | 281 |
| Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li | |
| TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 286 |
| Xamidov Otabek Bakidjanovich | |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI | 290 |
| Arzikulov Otabek Ali o'g'li | |
| ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ | 298 |
| Максудова Шахиста | |
| DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI | 304 |
| Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li | |
| O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 307 |
| Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li | |
| ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN | 311 |
| Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna | |
| МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ..... | 315 |
| Хурамова Фарангиз Учкун кизи | |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО | 319 |
| Дамир Рустамович Абдулов | |
| BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 324 |
| Alimov Baxtiyor Murodovich | |
| BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 335 |
| Narziyev Xayotjon Azamatovich | |
| O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI..... | 343 |
| Abdimuminova Saodat Taxirjonovna | |
| TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI | 352 |
| Abdulazizova Xushnoza Nayabovna | |
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 357 |
| Д. Мейлиева | |
| O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI | 361 |
| Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich | |



O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI



Parpiyev Jaxongir Iloxmonovich

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: xulugbek1984@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston auditorlik tizimida kasbdoshlar tomonidan baholash — “peer review” mexanizmini joriy etishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Xalqaro tajriba tahliliga asoslanib, ushbu tizimning auditorlarning professional mulohazasi, etik me'yorlarga rioya etishi va audit sifatini oshirishdagi ahamiyati aniqlangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda “peer review” tizimini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning samarali faoliyat yuritishi uchun qonunchilik, metodologiya, malaka oshirish tizimi va axborot-texnologik infratuzilmani takomillashtirish lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, Deloitte, KPMG, EY va Mazars kabi xalqaro kompaniyalarda qo'llanilayotgan ilg'or “Real-time feedback” hamda “Peer Review AI” tizimlari tahlil qilinib, ularni milliy sharoitga moslashtirish istiqbollari yoritilgan. Maqolada “peer review” tizimini bosqichma-bosqich, dastlab ixtiyoriy, so'ngra majburiy shaklda joriy etish, shuningdek professional uyushmalar tomonidan auditorlarning kasbiy mulohazasini rivojlantirishga oid ko'rsatmalar ishlab chiqish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: auditorlik tizimi, professional mulohaza, peer review, sifat nazorati, auditorlik etikasi, xalqaro tajriba, raqamli audit, real-time feedback, auditorlar palatasi, kasbiy standartlar, audit sifati, malaka baholash.

Abstract. This article presents the theoretical and practical foundations for introducing the “peer review” mechanism into Uzbekistan's auditing system. Based on an analysis of international experience, the study identifies the role of peer review in strengthening auditors' professional judgment, ensuring adherence to ethical norms, and enhancing audit quality. The research findings demonstrate that Uzbekistan possesses the necessary conditions for implementing the peer review system; however, legislative, methodological, educational, and technological improvements are required to ensure its effective functioning. Moreover, advanced systems such as “Real-time Feedback” and “Peer Review AI”, implemented by global firms including Deloitte, KPMG, EY, and Mazars, are analyzed, and their potential adaptation to national conditions is discussed. The article proposes a gradual introduction of the peer review system—initially on a voluntary basis, followed by mandatory implementation—and recommends that professional associations develop specific guidelines to strengthen auditors' professional judgment.

Key words: audit system, professional judgment, peer review, quality control, audit ethics, international experience, digital audit, real-time feedback, auditors' chamber, professional standards, audit quality, qualification assessment.

Аннотация. В статье рассмотрены теоретические и практические основы внедрения механизма «peer review» — взаимной оценки деятельности аудиторов в аудиторскую систему Узбекистана. На основе анализа международного опыта определена роль данного механизма в повышении качества аудиторских заключений, развитии профессионального суждения аудиторов и укреплении этических норм. Результаты исследования показывают, что в Узбекистане существуют реальные предпосылки для внедрения системы peer review, однако для её эффективного функционирования требуется совершенствование законодательной базы, методологии, системы повышения квалификации и информационно-технологической инфраструктуры. Кроме того, проанализированы передовые подходы, применяемые международными компаниями Deloitte, KPMG, EY и Mazars, включая системы «Real-time feedback» и «Peer Review AI», а также обозначены перспективы их адаптации к национальным условиям. В статье предложено поэтапное внедрение системы peer review — сначала на добровольной, затем на обязательной основе с разработкой профессиональных рекомендаций по развитию аудиторского суждения.

Ключевые слова: аудиторская система, профессиональное суждение, peer review, контроль качества, аудиторская этика, международный опыт, цифровой аудит, real-time feedback, палата аудиторов, профессиональные стандарты, качество аудита, оценка квалификации.



KIRISH

Xalqaro amaliyotda auditorlarning professional mulohazasini rivojlantirishda treninglar, tajriba almashinuvi hamda holatlarni tahlil qilish (case-study) mashg'ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yirik audit firmalarida muntazam o'tkaziladigan kasbiy seminarlar va sohaviy muammolarni yechishga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlar auditorlarga murakkab holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, auditorlarga maxsus senariylar asosida professional shubha, axloqiy dilemma va qarama-qarshi faktlarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar beriladi. Ushbu metodlar orqali auditorlar real hayotiy vaziyatlarni tahlil etish, muhim faktlarni ajratib olish va asosli xulosalar chiqarish bo'yicha amaliy malakaga ega bo'ladilar.

Yana bir muhim yondashuv-bu "peer review", ya'ni auditorlar faoliyatining kasbdoshlari tomonidan tahlil qilinishi jarayonidir. Mazkur amaliyot auditorlarning professional mulohazalarini ob'yektiv tahlil qilish imkonini beradi, ularning fikr yuritishdagi kuchli va takomillashtirishga muhtoj jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa auditorlarga o'z faoliyatini baholash, xatolardan samarali xulosa chiqarish va kelgusida to'g'ri metodik yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi. Ko'plab xalqaro auditorlik tashkilotlari, jumladan IFAC va ACCA, ushbu mexanizmi auditorlik sifatini oshirishda muhim vosita sifatida tavsiya etadi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Zamonaviy sharoitda auditorlar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilib, oldindan taxminiy mulohazalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'layotgan bir paytda, ularning shaxsiy professional fikrni chuqur asoslashga bo'lgan ehtiyoji ham ortmoqda. Shu sababli, xalqaro amaliyotda auditorning insoniy fikrlash jarayonini avtomatlashtirilgan hisob-kitoblardan ajratish hamda uni baholashning ilmiy mexanizmlarini joriy etish jarayoni faol rivojlanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyatida professional mulohaza (professional judgment) tushunchasi auditorning kasbiy tajribasi, bilimlari hamda etik me'yorlarga asoslangan holda qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar professional mulohazaning nazariy hamda amaliy jihatlarini har tomonlama yoritgan.

A.A. Shaposhnikov va T.V. Sinitsyna (2006) o'z ilmiy ishlarida professional mulohazaning audit sifatiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, uni auditorlik xulosasining ishonchligini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida baholaganlar. Mualliflar professional mulohazani faqat auditorning shaxsiy fikri emas, balki xalqaro standartlarga asoslangan metodologik yondashuv sifatida izohlaydilar.

M.L. Pyatov (2008) professional mulohazaning zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimidagi o'rnini ko'rsatib, hisob siyosatini shakllantirishda auditor va buxgalterning subyektiv qarashlari hisobotning ishonchligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan. U professional mulohazani iqtisodiy voqealarning to'liq aks ettirilishiga xizmat qiluvchi ijodiy va analitik jarayon sifatida ta'riflaydi.

T.V. Sinitsyna (2005) o'zining ilmiy dissertatsiyasida professional mulohazaning chegaralari masalasini yoritib, auditorning mustaqilligi va ob'yektivligini saqlagan holda subyektiv fikr bildirish jarayonini tahlil qilgan. U professional mulohazani "me'yoriy hujjatlar bilan chegaralangan ijodiy faoliyat" deb baholab, auditorlik tashkilotlarida bu jarayonni standartlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

K.B. Ahmadjonov (2016) o'z tadqiqotida O'zbekiston sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalarini o'rganib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida riskga yo'naltirilgan yondashuvni ishlab chiqish zarurligini asoslab bergan. Uning ishida auditorlarning kasbiy mulohazasini rivojlantirish, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va audit sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, professional mulohaza — nafaqat auditorning individual qaror qabul qilish vositasi, balki butun auditorlik tizimining sifat nazorati mexanizmini shakllantiruvchi markaziy element hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston auditorlik amaliyotida peer review (kasbdoshlar tomonidan baholash) tizimini joriy etish professional mulohazaning ob'yektivligini oshirish, auditorlarning kasbiy madaniyatini mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos sifat nazoratini yo'lga qo'yish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini auditorlik faoliyatida sifat nazorati, professional mulohaza va xalqaro tajribani milliy tizimga moslashtirish tamoyillari tashkil etadi. Maqola O'zbekiston auditorlik amaliyotida peer review tizimini joriy etishning ilmiy, tashkiliy va huquqiy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.



Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. Taqqoslash va analogiya usuli – xalqaro amaliyotda (AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya va boshqa davlatlarda) qo'llanilayotgan peer review mexanizmlari o'rganilib, ularning O'zbekiston auditorlik tizimi bilan o'xshashlik va farqli jihatlarini tahlil qilindi.
2. Tizimli tahlil – O'zbekiston auditorlik tizimining tarkibiy qismlari (Auditorlar palatasi, litsenziyalash tizimi, ichki nazorat organlari) o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, ularning audit sifatiga ta'siri baholandi.
3. Ekspert baholash – amaliyotchi auditorlar, professional birlashmalar va audit tashkilotlari rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar orqali peer review tizimiga nisbatan ularning fikrlari, kutishlari va takliflari tahlil qilindi.
4. Kontent-tahlil usuli – xalqaro audit standartlari (ISA 220, ISQC 1, ISSAI 40) hamda IFAC tomonidan ishlab chiqilgan "Quality Management System" hujjatlari o'rganilib, ularning peer review bilan bog'liq talab va tavsiyalari aniqlab chiqildi.
5. Induktiv yondashuv – olingan ilmiy ma'lumotlar asosida O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich peer review tizimini joriy etish modeli ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Audit qarorlarining sifatini oshirish zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, tahlil mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli vositalardan foydalanish orqali ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qaror qabul qilish jarayonini bosqichma-bosqich takomillashtirish, dalillarga asoslanish va xavf mezonlarini aniqlashtirish audit natijalarining ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, qarorlarni me'yorashtirish, ularning ketma-ketligini tartibga solish va daliliy asosni kuchaytirish auditorlik xulosalarining aniqligi va izchilligini ta'minlaydi.

Audit sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri — kasbdoshlar bahosi (peer review) tizimini joriy etishdir. Ushbu tizim orqali auditorlar faoliyati mustaqil hamkasblar tomonidan baholanadi, bu esa qarorlarning obyektivligi va asoslanganligini oshiradi. Bunday yondashuv professional mulohazani rivojlantiradi, xatolik ehtimolini kamaytiradi hamda auditorlik qarorlarini puxta va dalillarga tayanib qabul qilishni ta'minlaydi.

So'nggi yillarda xalqaro amaliyotda raqamli texnologiyalar asosida audit monitoringi tizimlari keng joriy etilmoqda. Masalan, dasturiy vositalar yordamida auditorlar tomonidan qabul qilingan qarorlar analitik modellar bilan solishtirib tahlil qilinadi, bu esa xatolik ehtimoli yuqori bo'lgan holatlarni avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi. Deloitte kompaniyasining 2022-yilgi hisobotida qayd etilishicha, ilg'or audit firmalari qarorlarni raqamli monitoring qilish orqali audit sifati ko'rsatkichlarini o'rtacha 12–15 foizga oshirishga erishgan. Ushbu tajriba O'zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb bo'lib, milliy auditorlik tizimida sifat nazoratini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston auditorlik tizimida kasbdoshlar bahosini joriy etish uchun zarur tashkiliy, metodologik va texnologik sharoitlar mavjud. Bunday tizim professional mulohazaning obyektivligini oshirish, kasbiy etikani mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos sifat nazoratini yo'lga qo'yish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, auditorlar malakasini oshirish, tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirish hamda axborot-texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarurligi aniqlangan.

Amaldagi tizimda esa ayrim bo'shliqlar mavjud bo'lib, ular asosan me'yoriy hujjatlar, metodologik asoslar va kadrlar salohiyatini oshirishga taalluqlidir. Kasbdoshlar bahosini tartibga soluvchi normativ hujjatlar hali to'liq ishlab chiqilmagan, baholash mezonlari milliy sharoitga mos ravishda mukammallashtirilishi lozim. Baholovchi auditorlarni sertifikatlash tizimini yaratish va axborot-texnologik infratuzilmani kengaytirish ham tizimni yanada shaffof va samarali qilish imkonini beradi.

Ushbu tizimni joriy etish O'zbekiston auditorlik amaliyotiga bir qator ijobiy o'zgarishlar olib kiradi. Eng avvalo, audit sifati oshadi, ichki nazorat mexanizmlari kuchayadi va auditorlar faoliyatida xalqaro standartlarga mos metodologik yondashuv shakllanadi. Shu bilan birga, ochiq va mustaqil baholash tizimi jamoatchilik hamda moliya bozori ishtirokchilarining auditorlik xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi. Kasbiy etika va professional me'yorlarga rioya qilish madaniyati mustahkamlanadi, bu esa O'zbekiston auditorlik tizimining xalqaro maydonga integratsiyasini jadallashtiradi.

Shu bilan birga, tizimni joriy etish jarayonida ayrim ehtiyot choralariga e'tibor qaratish zarur. Quyidagilar bunga misol bo'la oladi:

1. Huquqiy aniqlikni ta'minlash – baholash natijalarining auditorlik faoliyatiga ta'sirini tartibga soluvchi aniq me'yorlar ishlab chiqilishi lozim.
2. Shaffoflikni oshirish – baholash jarayonida har qanday sub'yektiv ta'sir yoki manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlari joriy etilishi kerak.



3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash – kichik auditorlik firmalari uchun baholash xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat va professional uyushmalar tomonidan grant yoki subsidiyalar tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

4. Maxfiylikni ta'minlash – baholash jarayonida mijoz ma'lumotlarini himoya qilish uchun axborot xavfsizligi standartlariga qat'iy rioya etilishi shart.

Natijada, kasbdoshlar bahosi tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali nafaqat audit sifatini oshirish, balki sohada kasbiy madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Ushbu tizim auditorlik tashkilotlari faoliyatining shaffofligi, javobgarligi va ishonchligini mustahkamlaydi, O'zbekistonning xalqaro auditorlik standartlari bilan uyg'unlashuvini esa yanada tezlashtiradi.

So'nggi yillarda AQSh va Yevropa mamlakatlarida auditorlarning professional mulohaza sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or texnologik mexanizmlar "Real-time feedback" (real vaqtili fikr-mulohaza) va "Peer review AI" (sun'iy intellekt asosidagi o'zaro ekspert bahosi) tizimlari keng tatbiq etilmoqda. Ushbu yondashuvlar auditorlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning aniqligi, xolisligi va asoslanganligini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish hamda doimiy ravishda takomillashtirish imkonini yaratmoqda.

AQSh tajribasida yirik auditorlik firmalari — Deloitte, PwC va KPMG tomonidan joriy etilgan "Real-time feedback" tizimi orqali auditorlar tomonidan shakllantirilgan professional mulohazalar maxsus algoritmlar yordamida baholab boriladi. Masalan, Deloitte kompaniyasining 2021-yil holatiga ko'ra, mazkur tizim yordamida 34 mingdan ortiq audit holati tahlil qilingan bo'lib, ularning 11 foizida aniqlik va axloqiy muvofiqlikni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar darhol taqdim etilgan. Ushbu tizim ayniqsa muhim audit masalalari (Key Audit Matters) bo'yicha qarorlar shakllanishida auditor fikrining obyektivligini mustahkamlashga va xulosalarning sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Yevropa mamlakatlarida esa bu jarayon "Peer review AI" mexanizmi bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mazkur tizim ilgari tajribali auditorlar tomonidan bildirilgan mulohazalar bazasi asosida yangi fikrlarni real vaqt rejimida avtomatik tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Germaniyada 2022-yilda Ernst & Young (EY) kompaniyasi tomonidan joriy etilgan "Peer Review AI Engine" dasturi orqali 14 mingdan ortiq auditorlik hisobotlari tahlil qilingan, ularning 23 foizida sub'yektiv elementlar mavjudligi aniqlangan va ularni takomillashtirish uchun avtomatik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, tizim auditorlarning tajriba darajasini e'tiborga olgan holda mulohazalarning o'xshashlik koeffitsientini hisoblab, professional o'sish dinamikasini ham monitoring qiladi.

Fransiyada esa Mazars kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Audit Companion" nomli sun'iy intellekt tizimi keng qo'llanilmoqda. Mazkur tizim auditor tomonidan yozilgan xulosalarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan notekislik, noaniqlik yoki ortiqcha umumlashtirish elementlarini aniqlab, darhol tahririy tavsiyalar beradi. 2023-yil hisobotlariga ko'ra, ushbu tizim orqali qayta ishlangan auditorlik mulohazalarining 87 foizi audit sifati baholovchi komissiyalar tomonidan yuqori baholangan, bu esa tizimning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Mazkur texnologik yechimlar auditorlarga o'z professional qarorlarini nafaqat texnik mezonlarga, balki normativ, axloqiy va tajriba asosidagi standartlar bilan solishtirish imkonini beradi. Shuningdek, "feedback loops" mexanizmlari orqali auditorning fikr shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ya'ni auditor har bir xulosani yozish jarayonida avtomatik ravishda avvalgi holatlar bilan solishtirish, baholash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa auditorlarning o'z kasbiy fikrini chuqurroq tahlil qilish va uni uzluksiz ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Xitoy tajribasida esa auditorlik amaliyoti keng qamrovli davlat siyosati va iqtisodiy islohotlar bilan uyg'unlashgan holda shakllanmoqda. Ayniqsa, professional skeptisizm tamoyili mamlakat moliyaviy tizimini mustahkamlashda hamda audit sifatini oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. 2020-yildan boshlab Xitoyda "Raqamli audit" tashabbusi doirasida davlat organlari va yirik auditorlik firmalari o'rtasida axborot almashinuvi tizimi jadal rivojlantirildi. Bu yangilik moliyaviy hisobotlarni baholashda mustaqil tahlil yuritish, noaniqliklarni aniqlash va professional shubha tamoyilini faol qo'llash imkonini kengaytirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Audit sifatini oshirishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekistonda "peer review" tizimini bosqichma-bosqich joriy etish zarurati dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari ushbu tizimning amaliy ahamiyatini ilmiy asoslab beradi. "Peer review" — bu auditorlik tashkilotlari faoliyatining kasbdoshlar tomonidan mustaqil ravishda baholanishini nazarda tutuvchi mexanizm bo'lib, xalqaro amaliyotda audit sifatini kafolatlovchi eng muhim vositalardan biri sifatida qaraladi. Mazkur tizimni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish auditorlik xizmatlarining sifat monitoringini kuchaytiradi, shuningdek, auditorlarning professional mulohazasi shakllanishida aniqlik, xolislik va asoslanganlik mezonlarini amalda qo'llashni rag'batlantiradi.

Bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlar jarayonida dastlab ixtiyoriy, keyinchalik esa majburiy peer review mexanizmini joriy etish orqali auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratining barqaror madaniyatini shakllantirish mumkin. Bu esa ichki baholash jarayonini takomillashtiradi, auditorlarning kasbiy mas'uliyatini oshiradi hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.



O'zbekistonda auditorlik tashkilotlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish mexanizmlarini kengaytirish, ichki audit sifatini baholashda professional mulohazaga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda O'zbekiston auditorlar palatasi va boshqa professional uyushmalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ular kasbiy mulohaza shakllanishiga oid maxsus metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqib, ularni auditorlik amaliyotiga majburiy yoki tavsiyaviy tartibda joriy etish orqali tizimni izchil takomillashtirishi lozim.

Shuningdek, "peer review" tizimini joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, auditorlarning malakasini oshirish hamda raqamli texnologiyalar asosida audit sifatini baholash tizimini yaratish kelgusida muhim natijalar beradi. Ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan tizimli ishlar O'zbekiston auditorlik amaliyotining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi, audit sohasining raqobatbardoshligini oshiradi hamda iqtisodiy ishonchlilik va shaffoflik darajasini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmadjonov K.B. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2016. – 76 b.
2. Bhide A. "Trebuyutsya otvetstvennye suzhdeniya". Harvard Business Review, 2010. – S. 46–57.
3. Generalova N.V. "Professionalnoye suzhdeniye i ego primeneniye pri formirovaniy otchetnosti, sostavlennoy po MSFO". Bukhgalterskiy uchet, 2005. – №23. – S. 54–61.
4. Pankova S.V. "Sataalkina E.V. Professionalnoye suzhdeniye bukhgaltera i auditora: skhodstva i razlichiya". Mezhdunarodnyy bukhgalterskiy uchet, 2011. – №21 (171). – S. 10–15.
5. Pyatov M.L. "Professionalnoye suzhdeniye v sovremennoy praktike ucheta". Bukhgalterskiy uchet, 2008. – №24. – S. 51–55.
6. Sinitsyna T.V. "Granitsy professionalnogo suzhdeniya v audite. Dissertatsiya ... kand. Ekon". nauk: 08.00.12. – Novosibirsk: NGUEU, 2005. – 125 s.
7. Spravochnik po vneshnemu i vnutrennemu auditu khozyaystvuyushchikh subyektov na territorii Respubliki Uzbekistan. – Toshkent: Norma, 2007. – 84 s.
8. Tuyakova Z.S., Sataalkina E.V. "Klassifikatsiya professionalnogo suzhdeniya kak sovremennogo instrumentariya bukhgalterskogo ucheta". Vestnik OGU, 2010. – №1 (107). – S. 90–97.
9. Shaposhnikov A.A., Sinitsyna T.V. "Professionalnoye suzhdeniye i ego rol v audite". Auditorskiye vedomosti, 2006. – №4. – S. 4–7.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>